

ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA VATAN TARANNUMI

G'ofurova Farangiz¹

Komilova Muyassar²

¹Toshkent amaliy fanlar universiteti Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

²Toshkent amaliy fanlar universiteti Rus tili kafedrasi katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13383589>

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk shoirlar Alisher Navoiy va Bobur ruboilyarida vatan sog'inchining ifodalanishi, ushbu ruboilyarning inson tarbiyasidagi ahamiyati haqida so'z yuritilan. Shuningdek, Boburning Navoiy portretiga chizgilar “Boburnoma” asaridan keltirilgan namuna orqali yoritib berilgan. Har iikala shoirning ijodi bugungi kunda yoshlarga ibrat maktabini o'tayotgani haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: “Boburnoma”, Alisher Navoiy shaxsi, ezhulik, insomparvarlik, saxovat, vatan sog'inch, odil siyosat, madaniyat va ma'rifatga e'tibor, yoshlar tarbiysi.

1 KIRISH

Besh asr ortiq vaqt o'tibdiki, ulug' mutafakkir bobolarimiz, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning boy ma'naviy me'rosi butun dunyoni hayratga solib, insonlar qalbiga, ongu shuuriga ezhulik, insomparvarlik, saxovat va mehr-muruvvat nurini tarqatib kelmoqda.

Ma'lumki, Mir Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur 42 yil farq bilan bir biriga zamondosh hisoblanishadi. Bobur Navoiydek buyuk zotni ustoz deb bilgan, ammo ustoz bilan diydorlashish bir umrlik armon bo'lgan.

Har ikki shoir ham o'z ijodlari bilan dunyoni lol goldirishgan. Alisher Navoiyning betakror ruboilyari, tuyuqlari, jamiki nasriy asarlari, xususan „Xamsa”sini faqar mumtoz adabiyot ishtiyoyqmandlari, balki adabiyotshunosu tilshunos olimlar, diniy ulamolarning ham fikru hayolini egallashganligi, Hazrat shoir ijodini takror va takror o'rganishga, tahlil etishga undab kelmoqda.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida “Boburnoma” shoh asar sanaladiki, bu kitob orqali nafaqat oddiy kitobxon, balki shoirlar, yozuvchilar, shuningdek manbashunos, tilshunos, etnograf, jug'rofija va boshqa yo'nalishdagi olimlar ko'plab tarixiy ma'lumotlarga ega bo'lmoqdalar.

Ma'lumki, “Boburnoma” asarida 1551 kishini ismi tilga olingen. Ular ichida juda ko'p tarixiy shaxslar, Temuriy hukmdorlar, harbiy amaldorlar, ilm-fan va san'at namoyondalarining tarjimayi hollari qisqa satrlarda zikr etilgan. Ma'lumki, Bobur Navoiy bilan uchrashish orzusiga yetolmagan bo'lsada, lekin yoshligidan uning shaxsi va ijodiga katta mehr bilan tarbiya topgan. Shunisi ahamiyatliki, “Boburnoma”da 1505-1506-yil voqealari bayon qilinar ekan, Husayin Boyqaro haqida ma'lumot berilayotgan o'rinnarda Alisher Navoiy shaxsiga ham to'xtalinadi. Jumladan, asarda Alisher Navoiy nomi 16 marta tilga olingen. Quyidagi satrlarni fikrimiz isboti sifatija keltiramiz: “Alisherbek naziri yoq kishi erdi, turkey tilda bila to she'r aytib turilar, hech kim ancha ko'p va ho'p aytg'on ermas”.

Bobur Navoiyning musiqadan xabardor ekanini, o'zi kuylar yaratganini qayd etadi. “Yana musiqiyda

yaxshi nima hor bog'labdur, yaxshi naqshlari va yaxshi peshvarlari border”. Bobur bergan ma'lumotga ko'ra, Navoiy shoh xazinasidan to'lanadigan maoshdan voz kechish bilan birga o'zi xazinaga ehsonlar qilib turgan. “Mirzodin nima olmas, balki yilda mirzog'a kulli mablag'lar peshkosh qilur erdi” - dedi Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarida.

Mumtoz adabiyotda bu ikki ulug' shaxsning adabiy merosi nihoyatda yuksak. Ular hayot go'zalliklari, shavqi, nafosati kuychilar sifatida bugungi kun yoshlari qalbidan ham chuqr joy olishgan.

Boburning ruboiy va g'azallari asosan sevgi-muhabbat, mehr va yurtga sog'inch mavzusida. U kitobxon ko'z o'ngida juda samimiy va nozik didli inson, adolatli va xalqparvar fidokor sigatida gavdalananadi. Bobur Hindistonda shoh bo'lgan bo'lsada, muqaddas Vatan sog'inch bilan yashagan. Va bu sog'inch hissi uning qator ruboilyarida aks etgan. Jumladan:

Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi

Har ishnikni ayladim, xatolig' bo'ldi,

O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,

Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Albatta, biz Vatanni sevishni, uning qadriga yetishni va unga sadoqat bilan xizmat qilishni shoirning mungli nolalaridan o'rganamiz.

Ko'pdin berikim yoru diyorum yo'qtur

Bir lahzay-u bir nafas qarorim yo'qtur.

Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,

Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.

Ma'lumki, Bobur o'z odil siyosati, madaniyat va ma'rifatga e'tibori bilan hukmronlik qilgan davlatlarida yuqori izzat-hurmatga ega bo'lgan. U borgan yerini obod qilgan, o'sha yurt madaniyatini yuksaltirishga, xalqining dardiga darmon bo'lishga intilgan. Ammo Bobur hamisha o'z vatani sog'inch bilan yashagan. Bu shoirning o'tli ruboiy va g'azallarida yaqqol aks etgan.

El bilmasa holatim, bilur yor,

Holimdin erur Xudoy ogoh.

Kobil sori gar azimat etsang,

Qurban qilay o'zni sanga, ey shoh.

Hazrat Navoiy ijodida ham Vatan mavzusi alohida o'rin tutadi. U o'z ruboilyarida vatandan yiroqda yashovchi insonni qafasdagi bulbulga o'xshatadiki,

ushbu satrlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan:

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulg'a tikandek oshiyon bo'lmas emish.

Ikkala shoir ham inson faqat o'z vatanida baxtiyor yashay olishi, vatansizlik uni xoru-zorlikka yetaklishi, hech qanday boylik, taxt bir parcha kindik qoni to'kilgan tuproq sog'inchni bosa olmasligini bitib ketishgan. Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan ruboilyar kitobxonda vatanni sevish, ardoqlash, asrash kabi insoniy hislarni uyg'otadi.

Necha asrlar o'tibdiki, Navoiy va Boburdek buyuk shaxslar ijodi hali hanuz xalq e'tiborida. Bugungi kun yoshlari ham shoirlar ijodini chuqr o'rganishmoqda. Har ikkala buyuk shoir ham adolatparvar va vatanparvar inson, yuksak didli ijodkor sifatida o'zlariga qo'l yetmas haykal o'rnatib ketishdi. Ular ijodi va hayot yo'li yoshtar uchun hamisha yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [1] <http://hozir.org/alisherbek-naziri-yoq-kishi-erditurkiy-til-bila-to-sher-aytib.html>
- [2] Murodxoja Muxtorov Musiqiy istilohlar va badiiy obrazlar ifodasi // Academic research in educational sciences. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/musiqiy-istilohlar-va-badiiy-obrazlar-ifodasi> (дата обращения: 26.01.2024).
- [3] <https://darakchi.uz/oz/180912>
- [4] <https://tafakkur.net/tole-yoqi-jonimga-baloligboldi/zahiriddin-muhammad-bobur.uz>
- [5] <https://tafakkur.net/kopdin-berikim-yoru-diyormayoqtur/zahiriddin-muhammad-bobur.uz>
- [6] <https://qumqurgon.uz/archives/7901>
- [7] <https://www.hikmatlar.uz/quote/59>